



**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DEHQONOV BURXON RUSTAMOVICH

**O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLAHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Dehqonov Burxon Rustamovich

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Дехконов Бурхон Рустамович

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития
внутреннего туризма в Узбекистане27

Dekhkonov Bourkhan Rustamovich

Improvement of organizational and economic mechanisms of domestic tourism
development in Uzbekistan53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DEHQONOV BURXON RUSTAMOVICH

**O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1858 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalini (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Mirzayev Abdullajon Topilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «7» 05 kuni soat 10:00-dagi majlisida bo'llib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1437 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75, faks: (99871) 239-28-75; e-mail: tdiu@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «24» 04 kuni tarqatildi.

(2024-yil «24» 04 dagi 29 - raqamli reyestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida
bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

A.N. Norchayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda turizm sanoati moliyaviy-iqtisodiy beqarorlik hamda xalqaro raqobatning kuchayishi turizm sohasi barqarorligini ta'minlashda ichki turizm imkoniyatlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan ichki turizmni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar, turistlar va tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlар iqtisodiyotning o'sishiga olib kelmoqda. BMTning Jahon sayyoqlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotiga ko'ra, turizmdan olingen foyda hisob-kitoblariga ko'ra, "2023-yilda 3,3 trillion AQSh dollarini yoki global yalpi ichki mahsulotning 3 foizini tashkil etadi, bu 2019-yildagi ko'rsatkich bilan taqqoslaganda ichki va xalqaro sayohatlar hisobi o'sganligini ko'rsatmoqda. 2023-yilda ishlab chiqilgan maxsus dasturlar ijrosi, xalqaro turizmni 2024-yilda pandemiyadan oldingi darajani to'liq tiklanishi kutilmoxda¹. Turizm sohasi uchun ijobiy prognoz BMTning turizm bo'yicha indeksining so'nggi so'rovida o'z aksini topdi, turizm sohasi mutaxassislarining 67 foizi 2023-yilga nisbatan 2024-yilda ushbu sohaning ancha rivojlanishini prognoz qilmoqda". Bu borada pandemiya davri va undan keyingi vaqt oraliq'ida turistlarning ichki turizmga bo'lgan talabini oshirish orqali sohadagi barqaror o'sishni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda mamlakatlar ichki turizmini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalarini belgilash, milliy iqtisodiyotga muvofiq keluvchi ichki turizmni rivojlantirish modelini ishlab chiqish, ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o'mini hamda turistik faoliyatni boshqarishda tashkilotlar va turistlar hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ichki turizmning salohiyati darajasini baholash, uni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi uslubiy asoslarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yetakchi tarmioqlarni modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida turizm sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoxda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturidagi "Ichki turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali 2026-yilda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyoohlari soni 12 mln. nafardan oshirish"² maqsadi doirasida bir qator vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirish maqsadida "ichki turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmunini hamda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, axborotning nosimmetrik ta'sir oqibatlari natijasida sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi vujudga keluvchi noqulay holatlarni oldini olish va tartibga solish orqali ichki turizmning rivojlanishini rag'batlantirish,

¹ <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data> | World Travel & Tourism Council (WTTC).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2-ilova. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi. - <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

O'zbekistonda ichki turizmning o'sishiga va daromadligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida uzoq muddatli istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-soni "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-soni "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanadirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-soni "Ichki turizmni jadal rivojlanadirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-soni "Kirish turizmini rivojlanadirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-soni "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlanadirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-soni "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlanadirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlarida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlanadirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllanadirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Ichki turizmni rivojlanadirish bilan bog'liq umumiylar ko'plab xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, bu yo'nalsida F.Kotler, M.Fridman, G.Geyl, A.Bxatiya, X.Stainton, S.Chand, Xasa, B.Oli, K.Gust, X.Gupta, R.Malak va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida turistik majmualar faoliyati va uning boshqarish jarayonlarini rivojlanadirishning nazariy hamda uslubiy jihatlari Ye.V.Jertovskaya, A.Y.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Jukova, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartałnov, A.M.Vetitnev, M.B.Birjakov, A.S.Kuskov, M.A.Morozov⁴ va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan S.S.Gulyamov, O.M.Pardayev, M.K.Pardayev, I.S.Tuxliyev, Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Yo'ldoshev, A.A.Eshtayev, A.N.Norchayev, N.T.Tuxliyev, B.N.Navruz-zoda, O.H.Hamidov, M.T.Aliyeva, A.T.Mirzayev, M.T.Alimova, B.SH.Safarov, A.F.Saidov,

³ Котлер Ф., Боуен Дж., Мэйкенз Дж. Маркетинг Гостеприимство и туризм: учебник для вузов / пер. с англ. под ред. Friedman M. Theory of the consumption function. – Princeton university press. 2018. – 258 р.; Gillian Geyl., BTEC 2005, Arjun Kumar Bhatia. Internationl Tourism Management 2006.-539 p. Dr. Hayley Stanton.. Children in Sustainable and Responsible Tourism 2022.-17 p. Smriti Chand., Event Marketing: Meaning, Features and Importance of Event Marketing. - Your Article Library, Hasa., Difference Between Domestic and International Tourism.- 2016, Nimesh Babu Oli., What is domestic tourism. -2021, Cvent Guest., How to Attract Domestic Tourists: 6 Strategies to Know. -2021, Harshita Gupta., Domestic tourism. - International Travel Consultant at ShowMe Holidays. -2021, Rosso Malaka - Domestic Tourism Definition and Significance. -2021.

⁴ Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский дом Герда, 2004.; Кубукчиев Н. Н. Менеджмент туризма. - Новое знание, 2001. – 432 с.; Кусков А.С., Джалаидзе Ю.А. Основы туризма Учебник. -М.: КНОРУС, 2015. - 530 с.; Морозов М. А., Морозова Н. С. Экономика туризма. - 2019. - 291 с.

Z.I.Usmanova⁵ Ye.V.Golisheva, Z.T.Bakayev kabi olimlarning ilmiy asarlarida turizmga oid muhim, xususan, ushbu sohani tartibga solish masalalari yoritib berilgan⁶.

Shuningdek, uchinchi renessans va ijtimoiy-iqtisodiy o'tish sharoitida ichki turizm rivojlanishining holati bilan bog'liq ba'zi masalalar, zamonaviy muammolar yangi tadqiqotlarni talab qiladi. Ichki turizmni iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini baholash, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'naliishlari va vositalarining ilmiy-nazariy, uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish kerak. Bugungi kunda ichki turizmni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini realizatsiya qilishda tadbirkor va turistga bo'lgan munosabatlarni va samarali hamkorlikni

⁵ Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самараодорлиги. Монография. – Т: IQTISODIYOT, 2019. – 203 б.; Пардаев М.К., Атабаев Р. Туристик ресурсларни таҳдил килиш ва баҳолаш. – Самарқанд: СамИСИ, 2006. – 137 б; Boltabayev M.P., Tuxliyev I.S. Turizm: nazariya va amaliyat. –Т.: «Fan va texnologiya», 2018. – 400 б.; Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ГФБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. Менежмент: o'quv qo'llanma. –Т.: O'zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 б.; А.А.Эштаев. Глобаллашув шароитида туризм индустрисини бошқаришининг маркетин стратегияси. (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) иктисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2019. – 246-б.; Тухлиев Н., Абдулаева Т. Национальные модели развития туризма. – Т.: Гос.научиздат «Ўзбекистон миллый энциклопедияси», 2006. – 424 с.; Навруз-зода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристик худуд ракобатбардошлиги. Монография. – Бухоро: «Sadriddin Salim Buxigoy» Durdona nashriyoti, 2017 – 156 б.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: Дисс...канд. экон. наук. – С.: СамИСИ, 2006. –155 с.; Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti: O'quv qo'llanma. – Т.: TDIU, 2011. –116 б.; Хонкелдиева Г.Ш., Муминова Э.А., Мирзаев А.Т., Асракулов А.А. Ўзбекистонда хизматлар соҳаси: замонавий ҳолат, муаммолар ва ривожланиши истиблоллари: Монография. – Тошкент, «Наврӯз», 2020. 162 бет.; А.Т.Мирзаев. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаoliyatiyini бошқариши metodologiyasini takomillashirishi. Иктисодиёт фанлари доктори (DSc.) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ, 2021. – 254-б.; Мирзаев А.Т. Ўзбекистон худудларида туристик-рекреация объектларидан самарали фойдаланиш механизмини takomillashirishi. Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2019. – 154-б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида). иктисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2017. – 265 б.; Сафаров Б.Ш. Milliy touristik xizmatlар bозорini innovatsion rivojlanishi shuning metodologik-uslubiy asoslarini takomillantirishni: иктисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ. 2016. – 254 б.; Сандов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан: Дисс... док. экон. Наук – Т., 1994. – 252 с.; Норчайев А.Н. Xalqaro turizm rivojlanishining ikhtisodiy usishiha taysiyi (Испания мисолида): икт.фан.номз. дисс. – Т., 2004. – 136 б.; Файзиева Ш. Р. Ўзбекистонда туризм rivojlanishining ikhtisodiy mehnazimini takomillashirishi: if.f.n. дисс – Т., 2006. – 156 б.; Усманова З.И. Ўзбекистонда туристик рекреацион хизматларни rivojlanishi xususiyatlari va tendenziyalari: иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – С.: СамИСИ, 2018. – 56 б.

⁶ Пардаев М.К. ва бошқалар «Хизмат кўрсатчи, сервис ва туризм соҳаларини rivojlanishi: muammolarni va ularning echiymlari», Монография, – Т.: Иктисодиёт-мolia naşriyoti, 2008. – 260 б.; Тухлиев И.С., Ҳайтбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва урта maxsus taylim vazirligi. – Т.: «Fan va texnologiya», А.Абдувоҳидов Туризмда ахборот технологиялари. – 2019-680 – 6. М.Т.Алиева Иктисодиётни эркинлаштириш шароитida туризм хизматлari соҳасining бошқаришинing иктисodий жihatlarasi. (Ўзбекистон мисолида) 2019.- 2046. 2014. 151-б.; Boltabaev M.P. «Turizm nazariya va amaliyot» faniidan elektron darslik яратish texnologiyasi: uslubiy kuldalanma. – Sam.: СамИСИ, 2016. - 96 б.; Алимова М.Т. Худудий turizm bозорinini rivojlanishi xususiyatlari va tendenziyalari (Самарқанд вилояти мисолида). Докторлик диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2017. – 95 б.; Гольшева Е.В.Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях: Дис...канд.экон.наук. – Т.: ТашГЭУ, 2011. – 170 с. З.Т.Бакаев Ички va kiruvchi turizmni rivojlanishi shuning tashkiliy ikhtisodiy mehnazimlarini takomillashirishi. 2021. PhD Диссертация.

amalga oshirish yuzasidan tadqiqotlarni o'tkazish talab qilinmoqda. Ichki turizmda muammolarning ko'pligi, yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbliji, uning maqsadi va asosiy vazifalarini aniqlashga imkon yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta'limga muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejulari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ALM-2023112123 "Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida Tuproqqa'l'a etno-muzeyini tashkil qilish" mavzuidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ichki turizmning nazariy asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini o'rganish;
ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

ichki turizmning xususiyatlari va uni rivojlantirish omillarini o'rganish;

O'zbekistonda ichki turizm rivojlanishining zamonaviy holatini o'rganish;

O'zbekistonda ichki turizmning salohiyati darajasini baholash;

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tahlil qilish va takomillashtirish;

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amalga oshirish usullarini ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda mahalla instituti va turizm subyektlari faoliyatini hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida statistik-iqtisodiy modellashtirish, taqqoslama va tarkibiy tahlil, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy modellashtirish, tizimli tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ichki turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmuni rezident, o'z mamlakati hududlarida sayohat qilishi yoki kirish turizmini o'z ichiga oluvchi, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiyalarini mujassamlashtiruvchi, mahalliy til, urf-odat, madaniyat, hudud oraliq masofasi, sayohatni tashkil etishdagi rasmiyatchilik darajasi kabi omillarning ta'siri bo'yicha yuqori manfaatdorlik va quaylikni ta'minovchi jarayon jihatidan takomillashtirilgan;

ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatlar doirasida "targ'ibot + tashkil etish + rag'batlantirish" tavsifidagi dastaklarini tatbiq etish orqali takomillashtirish asoslangan;

axborot, tashviqot va moslashuvning nosimmetrik ta'sir oqibatlari natijasida sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrif jarayonlaridagi soni hamda turistik va infratzizilma salohiyati o'rtaсидаги nomuvoſiqliklarni

muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va tavsiyaviy tartibga solish tadbirlarini qo'llash orqali ichki turizmning rivojlanishini rag'batlantirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda ichki turizmning o'sishiga va daromadligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik hamda chiziqli regressiya tahlili asosida ichki turistlar soni va mehmonxona xonalari sonining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amalliy natijalarini quyidagilardan iborat:

turizm sohasining tarkibiy qismlari xalqaro, kirish, chiqish, mahalliy, milliy va tashqi turizm turlariga mazmun jihatidan ilmiy guruhlangan hamda o'zaro bog'liqliklari va farqli jihatlari asoslangan;

O'zbekistonda ichki turizmning rivojlantirishda "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatlar doirasida "targ'ibot + tashkil etish + rag'batlantirish" tavsifidagi dastaklarini tatbiq etish orqali takomillashtirishda ichki turizm rivojlanishi asosiy prinsiplarining modeli ishlab chiqilgan;

axborot, tashviqot va moslashuvning nosimmetrik ta'sir oqibatlari natijasida sayohatchilarning mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi soni hamda turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va tavsiyaviy tartibga solish tadbirlarini qo'llash orqali ichki turizmning rivojlanishini rag'batlantirish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchhliligi. Tadqiqot ishi natijalarining ishonchhliligi foydalanilgan xorijiy tadqiqot usullarining sinovdan o'tganligi hamda uni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish imkonining yuqoriligi, shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik va idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish korxona va tashkilotlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tavsiflovchi statistika, Kronbax, Styudent modellaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan ichki turizmni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini kengaytirish va boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan ichki turizmni rivojlantirishini takomillashtirish mexanizmi, ichki turizmni rivojlantirish sohasi bo'yicha o'qitish, ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatlar doirasida "targ'ibot + tashkil etish + rag'batlantirish" tavsifidagi dastaklarini tatbiq etish orqali takomillashtirish, iqtisodiyotda barqaror rivojlantirishni tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ichki turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmunini rezident, o'z mamlakati hududlarida sayohat qilishi yoki kirish turizmini o'z ichiga oluvchi, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarni mujassamlashtiruvchi, mahalliy til, urf-odat, madaniyat, hudud oraliq masofasi, sayohatni tashkil etishdagi rasmiyatchilik darajasi kabi omillarning ta'siri bo'yicha yuqori manfaatdorlik va qulaylikni ta'minlovchi jarayon jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliv o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Turizmda atrof-muhit iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdag'i 356-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida oliv o'quv yurtlari talabalarida rezident, o'z mamlakati hududlarida sayohat qilishi yoki kirish turizmini o'z ichiga oluvchi, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarni mujassamlashtiruvchi, yuqori manfaatdorlik va qulaylikni ta'minlovchi jarayon jihatidan takomillashtirilgan ichki turizm tushunchasi bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarni kengaytirish imkonи yaratilgan;

ichki turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatları doirasida "targ'ibot + tashkil etish + rag'batlantirish" tavsifidagi dastaklarini tatbiq etish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining tomonidan "Mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 13-martdag'i 03-12-17-1596-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida "mahalla yettiligi" boshqaruvi tomonidan ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha aholi o'rtasida targ'ibot qilish, turistik tadbirlarni tashkil etish hamda ichki turizmni rag'batlantirish tavsifidagi dastaklarni yo'lga qo'yish imkonи yaratilgan;

axborot, tashviqot va moslashuvning nosimmetrik ta'sir oqibatlari natijasida sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi soni hamda turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va tavsiyaviy tartibga solish tadbirlarini qo'llashi orqali ichki turizmnning rivojlanishini rag'batlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining tomonidan "Mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 13-martdag'i 03-12-17-1596-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi soni hamda turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borish imkonи yaratilgan;

O'zbekistonda ichki turizmning o'sishiga va daromadligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik hamda chiziqli regressiya tahlili asosida ichki turistlar soni va mehmonxona xonalari sonining 2027-yilga qadar prognoz ko'tsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasini "Mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 13-martdag'i 03-12-17-1596-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga tatbiq etilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ichki turizm xizmatlari bozori resurs komponentlarining optimal integratsiyasi hisobiga turistik korxonalar va turistik majmualarning maqsadli parametrlarini samarali belgilash imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiylarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha uning asosiy g'oyalari va mazmunini aks ettirgan jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan respublika jurnallarida 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta, shuningdek, ilmiy amaliy konferensiyalarda 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 154 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan bo'lib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyatga joriy etilishi, mavzu yuzasidan nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibi tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**O'zbekistonda ichki turizmning ilmiy-nazariy jihatlari**" deb nomlangan bo'lib, unda ichki turizmga bo'lan qarashlar va ta'riflar keltirib o'tilgan, ular bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganib chiqilgan.

Ichki turizm – xalqaro turizmdan farqli o'laroq, o'z mamlakat chegaralaridan chiqmagan holda, boshqa hududlariga sayohat qilishdir. Demak ichki turizm deganda mamlakat chegaralaridan chiqmagan holda boshqa hududlariga sayohat qilish tushuniladi.

Izlanishimiz davomida e'tibor qiladigan bo'lsak Gillian Geyl ichki turizmga ta'rif shakllantirishda bir qancha davlatlarning turizm qonunlari va qoidalarini o'rganib chiqqan holda misollar keltirib, 2005-yilda o'zining BTEC Milliy sayohat va turizm talabalari uchun mo'ljallangan darsligida mahalliy sayyoohlarni ta'riflagan. Bundan tashqari, ba'zi mamlakatlarda, chet elga sayohat qilishda

qonuniy cheklolvlar mayjud. Albatta bu fuqarolar hayoti ustidan kuchli hukumat nazoratiga ega bo‘lgan ba’zi davlatlar (kommunistik davlatlar)dir.

Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ichki turizmga berilgan tariflarni bir-biriga taqqoslaganimizda huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni o‘rganib shakllantirilganligini ko‘rshimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro olimlar, amaliyotchilar va ilmiy saytlarning ichki turizmga bergan ta’riflari va yondashuvlari⁷

Olimlar va saytlar	Ta’riflar	Yondashuvlar
O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni 5-moddasi	Ichki turizm – O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o‘z ichiga oladi.	Sodda mazmunga ega bo‘lib, siyosiy va huquqiy yondoshgan
(ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php)	Ichki turizm – bu o‘sma mamlakat rezidentlari bo‘lgan tashrif buyuruvchilarning mamlakat ichidagi tashriflari.	Bu ta’rif ham umumiy ko‘rinishda va farqi jihatdan sodda so‘zлarni ishlatsliginini ko‘ramiz.
(lektsii.org)	Faqat mamlakat ichidagi sayohatni o‘z ichiga olgan ushbu mamlakat aholisining xarakati.	Taklif qilinayotgan bu saytning ta’rifi juda sodda va tushinarli qilib berilgan.
Gillian Geyl	“O‘z mamlakatida turistik maqsadlarda sayohat qilayotgan odamlar”	2005 yilda Gillian Geyl o‘zining BTEC Milliy sayohat va turizm talabalarini uchun mo‘ljallangan darsligida mahalliy sayyoohlarni ta’riflagan. ⁸ Sodda va ilmiy ta’rif berilgan.
Hayley Stainton	Bu o‘z mamlakatida sayohat faoliyatini amalga oshiradigan, bir kunlik yoki tunash uchun sayohat qiladigan har bir kishi. ⁹	Ta’rif ilmiy berilgan bo‘lib mahalliy turistning sayoxat davrini hisobga olib tuzilgan.
Mualliflik ta’rifi	Ichki turizm bu – rezident, o‘z mamlakati hududlarida sayohat qilishi yoki kirish turizmini o‘z ichiga olgan jarayon.	Ta’riflashda muallif mahalliy va xalqaro nazariy tajribalarga tayangan.

Yuqorida ta’kidlangan ta’riflarni shakllanishida bir qator olimlarning ham yondashuvlarini ko‘rib chiqdik. Har bir yondashuv o‘zgachaligi bilan ilmiy asoslangan. Ta’riflardan kelib chiqqan holda, mahalliy turistlar borar joyining mahalliy tilini bilishi va turmush tarzi, iqlimini hisobga olishi kerak. Ichki turizm o‘sishi turizm faolligini va xalqaro oqimlarning pasayishi kuzatilganda iqtisodiyotni sezilarli darajada yumshatishni ta’minlaydi. Mahalliy sayyoohlarni asosiy xususiyatni ifodalaydi: ular bilishadi, ular yaqin, ular to‘lamaydilar.

Misol qilib oladigan bo‘lsak, “ular bilishadi” – tushunchasi tahlili ichki turizmda mamlakat rezidentlarining hududlar orasidagi sayohati mazmunida til

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁸ <https://tourismteacher.com/domestic-tourism/>

⁹ <https://tourismteacher.com/domestic-tourism/>

bilishi, urf- odat madaniyati va ob-havo noqulayliklaridan xoli sifatida sayohatni amalga oshirishlari mumkin.


“Ular yaqin” – tushunchasi bizga ichki turizmda xalqaro turizmdan farqli o‘laroq sayohat paytida hududlarning uzoq-yaqinligini ifodalaydi. Turizmda masofa masalasi juda muhim o‘rin tutadi, chunki yoshi katta turist yoki nigorligi bo‘lgan fuqorolar harakat jihatidan noqulayliklar sezishlari mumkin.

“Ular to‘lamaydilar” – tibbiy ko‘rirkdan o‘tish yoki majburiy sug‘urta to‘lovlari, viza talab qilinmasligi ortiqcha qog‘ozbozliklarni yo‘qligi.

Ichki turizmni anglashda biz, xalqaro turizm bilan farqini shakl sifatida chizmasini ishlab chiqdik (1-rasm). Ichki turizm, xalqaro turizm va milliy turizmga bog‘liq asosiy turlarni quyidagi chizmada ko‘rsatib o‘tdik. Milliy turizm bu umumiyl tushinchha bo‘lib a‘lohidha ta‘rif bilan cheklangan. Chizmadan ko‘rinib turibdiki markazda umumiy turizm va uch yo‘nalishda turizm shakllari ko‘rsatib o‘tilgan. Xalqaro turizm, ichki turizm va milliy turizm – turizm shakllari hisoblanadi. Chegara doiralarda bevosita kirish turizmi, chiqish turizmi va mahalliy turizm shakllari bog‘lab turibdi.

Ichki turizm ta‘rifi bo‘yicha xalqaro turizmdan farqli o‘laroq, rezident, o‘z mamlakati hududlarida sayohat qilishi yoki kirish turizmini o‘z ichiga olgan jarayondir.

Milliy turizm turistlarni o‘z mamlakati ichida dam olishi, turli yo‘nalishlarda sarf-xarajat qilishi orqali iqtisodiyotga hissa qo‘shadi. Shuningdek, u mahalliy madaniyat va me’rosni targ‘ib qiladi. Mamlakatning turli mintaqalarda iqtisodiy manfaatlari tarqailishiga yordam beradi.



1-rasm. Turizmni bir-biriga bog‘liq bo‘lgan shakllari va o‘z ichiga oluvchi yo‘nalishlar chizmasi¹⁰

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobida **O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish holatining tahlili** amalga oshirilgan. Davlatning ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha islohotlari doirasida berilayotgan imkoniyatlari va ularni

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tashkiliy masalalari mexanizmi ishlab chiqilgan. Ilmiy ish davomida davlat va mahalliy turist bir-biriga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotni rivojlantiruvchi mexanizmini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi bilan birga mahalliy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini "mahalla yettiligi" boshqaruvi vakolat va majburiyatlari doirasida targ'ibot qilish, uni tashkil etish va rag'batlantirish tavsifidagi dastaklarini tatbiq etish orqali takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan. Buni 2-rasmda ko'rshimiz mumkin.

Natijada davlat va o'zini o'zi boshqarish organlari ichki turizmni barqaror rivojlanshini ta'minlash uchun mahalliy turistlarga iqtisodiy yordam berishi bilan birga qoidalar va standartlarni yaratishi, hamda joriy etishi kerak, mahalliy turistni shu sohada savodxonligini oshish, madaniy dam olishi uchun to'siqsiz harakatlanishi imtiyozlari doirasida soliq bilimdonligini oshirish mexanizmini yo'lga qo'yish kerak.



2-rasm. Mahalla yettiligini vakolat doirasida ichki turizmni rivojlantirish vazifalari¹¹

Ichki turizmni rivojlantirishda "mahalla yettiligi" tarkibiy vazifalarini mukammal belgilab berilishi lozim. 3-rasmda mahalliy turistni harakatga keltirishda jamoaviy tarkibini shakllantirish ko'rsatib o'tilgan.


Jamoalarga ajratilgan mahaliy aholini turizmga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni turizm savodxonligi bilan birga madaniy dam olishga undash sog'lom jamiyat qurishga asos bo'ladi.

Jamo bo'lib sayohatga borgan hududga iqtisodiy tomondan mablag' kelishi va shu hudud aholisini yashash tarzi yaxshilanishi kuzatiladi, bu respublikamizda pul massasini harakatga kelishiga sabab bo'ladi.

Davlat tomonidan ichki turizmni rivojlantirish mahalliy turistlarga iqtisodiy subsidiyalar berilishi maskur jarayonda mexanizm ishlashini taminlaydi. Masalan,

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ichki turistga byudjetdan yoki byudjetdan tashqari mablag‘lardan pul ajratish uni jamoaviy yo‘nalishiga qarab harakatini amalga oshirishga sabab bo‘ladi.




3-rasm. Jamoalarga ajratilgan ichki turizmni rivojlantirish mexanizmi¹²

Mahalla yettiligi a’zolarining vazifalari shundan iboratki, tashkiliy vazifasiga binoan ichki turizm haqida targ‘ibot ishlarini olib boradi, imkoniyati cheklangan fuqorolarni to’siqsiz harakatlanishi uchun imkoniyatlar yaratib berish bilan birga moliyaviy ko‘maklashish uchun harakat qiladi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni targ‘ib qilish, sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash maqsadida mahalliy turizmni rivojlantirish mahalla yettiligi uyg‘un harakati muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla raisi o‘z jamoasi bilan ichki turizmni targ‘ib qilib, tashkiliy masalalari hamda mahalliy turizmda faol xonadolnlarni rag‘batlantirib ichki turizmga bo‘lgan jarayonlarni shakllantiradi. Jamoa bo‘lib ishslashda hokim yordamchisi mahalliy turistlarga transport masalalarida yordam ko‘rsatishi, mahalliy horimylarni topish va tashkiliy vazifalarni bajarish, bayram va tadbirlarni tshkil etish vazifalarini bajaradi.

Ijtimoiy xodim nafaqadagi hamda mehnat faxriylari bilan ishslash, yetim bolalar va kam ta’minlangan oilalar farzandlari, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ichki turizmda hududlar kesimida xarakatlanishini tashkil etish, ichki turizmda to’siqsiz harakatlanish uchun imkoniyatlar yaratib berish vazifasini bajaradi.

Yoshlar yetakchisi, yoshlarlar turizmini tashkil etish hamda maroqli dam olishni yo‘lga qo‘yish bilan yoshlar uchun turizm to‘garaklarini tashkil etish, faol xotin-qizlarning turizm savodxonligini oshirish, turizmda faol xotin-qizlarni, nafaqadagi ayollarni, ijtimoiy daftarda turuvchi faol xotin-qizlarni rag‘batlantirish vazifalarini bajaradi. Jamoa bo‘lib ishslashda mahalla raisi turizm qo‘mitasi huzuridagi maxsus to‘garaklarda malaka oshirib olgan bilim va ko‘nikmalarini amalyotga tafbiq etadi.

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



4-rasm. “Mahalla yetiliqi” a’zolarining ichki turizmni rivojlantirishda uygun harakati mexanizmi¹³

4-rasm. Mexanizm ishlab chiqilgan konseptual modelda ko‘rishingiz mumkin. “Mahalla yetiliqi” a’zolarining ichki turizmni rivojlantirishda uygun harakati mexanizmi quyidagilardan iborat.

Mahalliy turizmni rivojlantirish mexanizmi sifatida yuqorida ishlab chiqilgan mexanizmni ishlashda bevosita ishtrokkilar to‘g’ridan-to‘g’ri mahalla raisi nazorati ostida kechadi. Ichki turizmni targ’ib etishda va tashkiliy masalalarini yo‘lga qo'yish ularni rag'batlantirishda moliyaviy yoki boshqa ko'rinishdagi jarayonlarni yettilik a'zolari bilan birgalikda harakat qiladi. Oddiy qilib aytganda, ijtimoiy xodimning vazifalari shundan iboratki, “Temir daftari”, “Yoshlar daftari”

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

va “Ayollar daftari” orqali ijtimoiy yordam ko’rsatish va subsidiyalar ajratishda byurokratiyadan xoli va mahallaning hamjihatligi bilan ichki turizmni tashkiliy masalalari ijrosini ta’minlaydi. Ichki turizmni rivojlantirishda bu kabi faoliyatni moliyalashtirish bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi orqali ijtimoiy yordam ko’rsatish va subsidiyalar ajratish “mahalla yettiligi”ning kollegial qarori asosida amalga oshiriladi.

Hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim ularga yuklatilgan vazifalar ichki turizmni rivojlantirishda subsidiyalar ajratish bo'yicha hujjatlarni shakllantirib, mahalla “yettiligi”ning boshqa barcha a'zolariga ko'rib chiqish va qaror qabul qilishda uyg'un harakati orqali amalga oshariladi.

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha axborot, tashviqot va moslashuvning nosimmetrik ta'sir oqibatlari natijasida sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrif jarayonlaridagi soni hamda turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va tavsiyaviy tartibga solish tadbirlarini qo'llash orqali ichki turizmning rivojlanishini rag'batlantirish, amaliyotga tatbiq etilishi, sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi soni, hamda turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borish imkonini yaratilishi juda muhim hisoblanadi.


Davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarning asosida samarali investitsiya siyosatini ta'minlovchi turistlar uchun “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!” shiori doirasida taqdim qilinadigan dasturlarni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi.

Davlat tomonidan ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlari huquqiy tomonidan puxta ishlab chiqilmoqda. Dasturda rivojlantirishga hududiy e'tibor berish muhimdir. Qishloq ichki turizmini rivojlantirish va shahar ichki turizmini rivojlantirish shular jumlasidandir. Qishloq ichki turizmini rivojlantirish jarayoni shahar ichki turizmiga qaraganda ancha sekin, shuningdek ichki turizmni rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi dasturda belgilangan rejalar ijrosining nazorati muhimdir. Har ikkala tomonni harakatini barqaror borishida imtiyozlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish kerak. Davlat tomonidan berilgan imtiyozlardan sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi jarayonlaridagi soni hamda turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va tavsiyaviy tartibga solish tadbirlarini qo'llash orqali bir-birini to'ldiruvchi mexanizm ishlab chiqildi (5-rasm). Bunda bir element bir-birini to'ldirib boradi. Ichki turizmni davriy baholash va tartibga solish choralarini orqali rivojlantirish uchun tizimli yondashuv zarur.

Tafovutlarni aniqlash: Muayyan yo'nalishlarga tashrif buyuradigan sayyoohlari soni va ushbu hududlardagi turizm va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Infratuzilmadagi kamchiliklar, masalan, joylashtirish vositalarini yetarli emasligi, transport cheklari yoki mahalliy turistlar uchun to'siqlar turizm

rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ichki turizm va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqqliklarni muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va bir-birini to'ldirilishi nazariy tushinishda ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish mahalliy sayyoohlarni soni to'g'risida statistik ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlar tashrif buyuruvchilar soni, demografik va sarf-xarajatlarini hisoblash orqali muammoni hal qilish mumkin.




5-rasm. Ichki turizm va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqqliklarni muayyan turistik obyektlar kesimida davriy baholash va bir-birini to'ldirilishi¹⁴

Mutaxassislar bilan fikr almashish: Baholash natijalarini muhokama qilish va tartibga solish choralarini bo'yicha fikr-mulohazalarni yig'ish uchun vakolatli organlar, turizm biznesi subyektlari, mahalliy aholi va turizm operatorlari kabi manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish. Bu taklif etilayotgan choratadbirlarning amalga oshirilishi, samarali bo'lishini va tegishli manfaatdor tomonlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Me'yoriy choratadbirlarni ishlab chiqish: Baholash natijalari va manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari asosida aniqlangan nomuvofiqqliklarni bartaraf etish va turizmni rivojlantirishga ko'maklashish uchun tartibga soluvchi choratadbirlar ishlab chiqish.

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan
18

Ushbu chora-tadbirlar hududiy turizmni tartibga solish, salohiyatdan unumli foydalanishni rejalashtirish, infratuzilmaga investitsiyalar, turizm obyektlarining sifat standartlari va turizm infratuzilmasiga xususiy sektor investitsiyalarini jaib etishni o'z ichiga oladi.



6-rasm. Turizm maskanlari va infratuzilma salohiyati o'rta-sidagi nomuvofiqqliklarni bartaraf etishni tashkiliy mexanizmi¹⁵

Monitoring qilish: Dasturlarni samarali amalga oshirilayotganligi va kerakli natijalarga erishilayotganligini ta'minlash uchun jarayonni kuzatib borish. Kerak bo'lganda tuzatishlar kiritish.

Baholash: Ichki turizmnинг barqaror rivojanishini baholash. Natijalarni optimallashtirish va yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lganda me'yoriy-huquqiy bazaga tuzatishlar kiritish.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ushbu yondashuvga amal qilgan holda, ichki turizmga bo‘lgan talab va infratuzilma imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutlarni tizimli ravishda aniqlash va bartaraf etish va shu orqali ichki turizmning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Me’yoriy-huquqiy chora-tadbirlar turizmni rivojlantirishni puxta rejalashtirish, muvofiqlashtirish va kengroq iqtisodiy va ekologik maqsadlarga va barqarorlikka erishishga olib keladi.

Nosimmetrik ta’sir oqibatlari natijasida sayohatchilarining mamlakatning turli turistik maskanlariga tashrifi doirasida to’siqlarga uchramasligi va noqulaykiklarni oldini olish uchun mahalliy turistlar oqimini o‘rganish, ularni har tomonlama tahlil qilish talab etiladi. Buni 6-rasmda ko‘rish mumkin.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, moslashuv, tashviqot va ma’lumotning mahalliy sayohatchilar va turizm obyektlariga tashriflarini oshirish va turistik infratuzilma salohiyati o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, ichki turizmni rivojlantirishning muvofiqligi, mamlakatning turli turistik joylariga tashriflar va infratuzilma salohiyati o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni o‘z vaqtida bartaraf etib borish talab etiladi.

Joylarda mahalliy turistlar uchun noqulayliklar, yo‘l infratuzilmasi, haftaning dam olish kunlarida talabga nisbatan taklifning nomutanosibligi, tirbandliklar, chiptalar yetishmasligi, joylashtiruv vositalari kamligi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish shular jumlasidandir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida ichki turizmning o‘sishiga va daromadligiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili o‘tkazilib, chiziqli regressiya tahlili asosida ichki turistlar soni va mehmonxona xonalari soni umumiy turizm daromadiga sezilarli ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Ichki turizmda ta’riflovchi statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik o‘zgaruvchilar uchun o‘rtacha qiymatlar nisbatan yuqori bo‘lib, bu hududda turizm va mehmonondo‘stlik faolligi sezilarli darajada ekanligini ko‘rsatadi. Ba’zi o‘zgaruvchilar uchun standart og‘ishlar ham juda katta, bu hududning turli qismlarida keng ko‘lamli qiymatlar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ichki turizmda xizmatlar iste’molini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlanirish yo‘llari tahlil qilingan bo‘lib, yillik ichki sayyoohlар sonining o‘rtacha qiymatini olib, ichki turizm turlariga nisbati 2-jadvalda (stata) dasturida o‘rganilib chiqildi.

Mehmonxonalar soni bo‘yicha o‘rtacha qiymat hisoblanib 2016 yildan har chorak qismlar bilan 28 vaqtli qatorlarda tahlil qilindi. Bu shuni ko‘rsatdiki, ichki turizm turlariga bo‘lgan talab yuqoriligi hududlarda turar-joyga talab sezilarli darajada.


Respublikada restoranlar sonining o‘rtacha 500 tani tashkil etadi, bu sayyoohlар uchun turli xil ovqatlanish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Suvenir do‘konlari sonining o‘rtacha 200 tani tashkil etadi, bu sayyoohlар uchun esdalik sovg‘alari va boshqa shu kabi buyumlarni sotib olish uchun juda ko‘p imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

2-jadval

Ichki turizm turlarini tahlil qilinganda natijaviy ta’riflovchi statistik ma’lumotlar¹⁶

O’zgaruvchilar	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Ichki turizm iste’moli (mlrd)	28	4213.7	1666.651	1317.7	7702.5
Ichki turistlar soni	28	2035.614	1197.506	88	4368
Mehmonxonalar o’rni	28	9992.893	5161.005	1125	20889
